XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-dekabr VII-13-83-11-167-K/25 Quvasoy shahar

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Quvasoy shahridagi 2 ta geografik obyektlarni (mahalla fuqarolar yig‘ini, ko‘cha) qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga, Pakana, Qo‘chqorchi MFY fuqarolarining iltimosnomalari, vakillik Kengashlarining 2025-yil 19-sentabr kungi yig‘ilish bayonlari, Quvasoy shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining joriy yil 26-sentabr kuni 01-05/61-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha taklif tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Respublika toponimika xizmatiga viloyat hokimining 06-7/10212-sonli aloqa xati bilan “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, 2025-yil 15-oktabr kungi 03-08-11723-sonli aloqa xati, 2025-yil 10-oktabr kungi 05-19-17681-sonli yig‘ilish bayoni hamda ekspert xulosasiga asosan 2 ta geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha bergan takliflaridan barchasi qonun hujjatlari talablariga “muvofiq” deb topilib, belgilangan tartibda ijobiy xulosalar olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 15-oktabr kungi 03-08-11723-sonli aloqa xati, 2025-yil 10-oktabr kungi 05-19-17681-sonli yig‘ilish bayoni, ekspert xulosasi hamda davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha shaharhokimining maslahatchisi X.Xo‘janazarovning “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur masala Xalq deputatlari shahar Kengashining “Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama qilinib, shahar Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘g‘risidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

3. Quvasoy shahar komissiyasi tomonidan geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (ko‘cha) nomlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin, shuningdek, belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

4. Quvasoy shahar hokimligi Axborot xizmati (A.Nishonboyev), “Isfayram” gazetasi bosh muharriri (O‘.Karimova) ushbu qarorni keng ommaga yetkazish tavsiya etilsin.

5. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror bajarilishiga shahar hokimining o‘rinbosari (A.Mamajonov), Kadastrlar palatasi Quvasoy shahar filiali rahbari (B.Bozorboyev) shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

7. Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining tegishli doimiy komissiyalari hamda Davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha Quvasoy shahar hokimining maslahatchisi (X.Xo‘janazarov) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror imzolangan kundan kuchga kiritilsin.

9. Imzolangan qarordan bir nusxasi, xisobot (axborot) beruvchi tashkilotning yuqori turuvchi rahbariyati (vazirligi)ga yuborilsin.

Sessiya raisi **MEXMONOV MO‘YSINJON DADAJONOVICH**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2025-yil 5-dekabrdagi
VII-13-83-11-167-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati Quvasoy shahridagi geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (mahalla, ko‘cha) nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Qonun talablariga muvofiqlashtirilgan nomi
1.	Mahalla	Quvasoy shahri	Pakana	Bunyodkor
2.	Ko‘cha	Qo‘chqorchi mahallasi	Pastki Mo‘yon	Ipakchilik

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining 2025-yil 5-dekabrdagi VII-13-83-11-167-K/25 -son qaroriga 2-ilova

2/2-651

"TASDIQLAYMAN"
Ekspert komissiyasi raisi
_____ T.M.Abdullayev
(imzo, f.i.sh.)
2025 yil "10" oktabr
05-19-17681

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida

EKSPERT XULOSASI

Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2025-yil 26-sentabrdagi 06-7/10212-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Farg'ona viloyati komissiyasining Quvasoy tumanidagi 2 ta geografik obyekt (mahalla, ko'cha) ni qayta nomlash bo'yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijasi,shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

Farg'ona viloyati komissiyasi tomonidan taqdim etilgan 2 ta geografik obyektni qayta nomlash bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topildi.

Quvasoy tumani

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog'lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Quvasoy tumani	Pakana	1. Bunyodkor 2. Yangi Quvasoy 3. Gulobod 4. Muayyanobod	Takliflardan **Bunyodkor** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko'cha	Qo'chqorli mahallasi	Pastki Mo'yon	1. Yangizamon 2. Yaxshilik 3. Ipakchi 4. Muhtasham	Takliflardan **Ipakchi** asosli nom tavsiya etiladi. **Ipakchilik**- "Geografik obyektlar nomlarining o'zbek tilida yozilishi" qoidalari asosida me'yorlashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

"TASDIQLAYMAN"

Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi Kadastr agentligi
direktorining o'rinbosari,
Geografik obyektlarga nom berish
va ularni qayta nomlash to'g'risidagi
takliflarni davlat ekspertizasidan
o'tkazish ekspert komissiyasi raisi
_____T.M.Abdullayev
2025-yil 10 oktabr
05-19-17681

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig'ilish

BAYONI

2025-yil "10"oktabr — Toshkent shahri

Raislik qiluvchi : T.M.Abdullayev, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o'rinbosari, Ekspert komissiyasi raisi

Qatnashdilar: Komissiya a'zolari, tizimda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar

KUN TARTIBI:

Farg'ona viloyati Quvasoy tumanidagi geografik obyektlarni qayta nomlash
(T.Abdullayev, I.Ergeshov, O'.Imomkulov, D.Kamolova, O.Fayziyeva, D.Ro'ziqulov)

Farg'ona viloyati hokimligining 2025-yil 26-sentabrdagi 06-7/10212-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Farg'ona viloyati Quvasoy tumanidagi 2 ta geografik obyekt (mahalla, ko'cha)ni qayta nomlash bo'yicha taklifi Ekspertiza komissiyasi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalari, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

Farg‘ona viloyati hamda Quvasoy tumani komissiyalari tomonidan taqdim etilgan 2 ta geografik obyektni qayta nomlash bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topildi.

Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan kiritilgan takliflarni o‘rganish, taqdim etilgan ma’lumotni tahlili asosida ekspert komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Farg‘ona viloyati komissiyasining Quvasoy tumanidagi 2 ta geografik obyekt (mahalla,ko‘cha)ni qayta nomlash bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq, deb hisoblansin va belgilangan tartibda ekspertiza xulosasi tayyorlansin.

2. Ekspertiza komissiyasi muvofiq deb topgan geografik obyekt nomi qonunda belgilangan muddat ichida Xalq deputatlari Quvasoy tumani Kengashi sessiyasida tasdiqlatilib, davlat reyestr bazasiga kiritish uchun taqdim qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Yig‘ilish kotibi: **D.N.Kamolova**